



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 528 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
Gulmonova Guli Anvar qizi	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
Bozorova Muxlisa	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
Qarshibayeva Dilduza Xidirbayevna	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
Alimov Azim Anvarovich	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
Burtshova Aliya Burxonovna	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
Nazarova Vazira Bahron qizi	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
Shodmonova Munisa Furkatovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Jamoat transporti haydovchilarining psixoemotsional barqarorligini shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari.....	369
Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna	
Игровые технологии как средство развития речевой активности детей с тяжёлыми нарушениями речи.....	375
Шакирова Ситора Абдугануровна	
Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari.....	380
Jo'rayev Nodirbek Nutfillo o'g'li	
Ценностно-смысловой потенциал поэзии Анны Ахматовой в формировании языковой личности и духовно-нравственном становлении учащихся: методический аспект	385
Жабборовна Гулчехра Жобириковна	
Raqamli ta'lim sharoitida geoaxborot tizimlarini o'qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari...	391
Iskandarov Bayimbet Sobir o'g'li	
O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish yo'nalishlari	395
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish	399
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	404
Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasi	409
Sharopova Zarnigor Tolib qizi	
Assessment for Learning and Assessment of Learning: Formative and Summative Approaches in Foreign Language Education in Uzbekistan.....	415
Ramazonova Feruzaxon Akbarovna	
Aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	420
Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna	

Umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarning raqobatbardoshligini baholash va samarali boshqarishning qiyosiy tahlili	425
Uzakbayeva Raxima Xojabayevna	
Nemis tilida so'zlashuvchi davlatlar va nemis adabiy tili tarixi	430
Adham Berdimurodov Musurmonovich	
Xorijiy andragogik yondashuvlarni kasbiy ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari	434
Yusupov Ulug'bek Kamalovich	
The Power of Intercultural Competence in Global Communication.....	439
Serdaliev Baxitli Xaydarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarning badiiy tafakkurini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish metodikasi	443
Matrizayeva To'maris Jumamirat qizi	
Raqamli ta'lim transformatsiyalashu-vining pedagogik mazmuni va zamonaviy tendensiyalari.....	449
Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi	
Pedagogik ta'lim tizimida raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni.....	457
Boymirzayeva Shanoza Olimjon qizi	
The Effectiveness of a Synthetic Phonics Programme in Teaching Word Reading, Spelling and Reading Comprehension: a Critical Review and EFL Pedagogical Implications.....	465
Nishonova Zuxra Voxidjon qizi	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari: tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar.....	471
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Biologiya ta'limida o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashni pedagogik kvalimetriya va zamonaviy psixometrik yondashuvlar asosida takomillashtirish.....	476
Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li	
Oiladagi nizolarni hal etishda mediatorlik faoliyatining ahamiyati.....	483
Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	
Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslari	487
Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich	
Kompyuter tarmoqlari mavzusini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari	493
Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi	
Bo'lajak filologlarni tayyorlashda art-menejment asosida pedagogik boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish texnologiyasi	499
Qo'chqarova Feruza Maxamatqosimovna	
Kasbiy sifatlarni rivojlantirishda qadriyat yo'naltirilganlik va motivatsion soha o'zaro bog'liqligi.....	503
Qo'shmuratov Bekzod Abduraimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimi	509
Rustamova Manzura Mirkamalovna	
"Kelajak soatlari" darslarida yuqori sinf o'quvchilarining o'zini-o'zi tarbiyalash (self-education) kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	517
Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi	
Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.....	523
Teshaboyev Ilxomjon Inomjon o'g'li	



TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI: TIZIMLI, KOMPETENSIYAVIY VA FAOLIYATLI YONDASHUVLAR

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1580-8569>

Annotatsiya: Maqolada talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni (IAK) rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarni yagona metodologik o'zakda integratsiyalovchi konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada IAK tushunchasining mazmuni aniqlashtirildi, uch yondashuvning metodologik funksiyalari qiyosiy tahlil qilindi hamda to'rt komponent (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-informatsion, operatsional-analitik, refleksiv-baholovchi) va 16 indikordan iborat tuzilmaviy-funksional model asoslandi. Mazkur yondashuvlar integratsiyasi IAKni yaxlit, natijaga yo'naltirilgan va talabaning faol subyektligi asosida rivojlantirish imkonini beradi. Taklif etilgan modeldan oliy ta'limda diagnostika, o'quv jarayonini loyihalash va baholashda metodik asos sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: informatsion-analitik kompetentlik, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv, metodologik asos, tuzilmaviy-funksional model, tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, oliy ta'lim, indikator, diagnostika, refleksiya.

Abstract: The article examines the conceptual and methodological foundations for developing students' information-analytical competence (IAC). The study aims to develop a conceptual model that integrates systemic, competency-based, and activity-based approaches within a unified methodological core. The methods include theoretical analysis of scientific and pedagogical literature, comparison, generalization, systematization, and modelling. The study clarifies the content of IAC, comparatively analyses the methodological functions of the three approaches, and substantiates a structural-functional model comprising four components (motivational-value, cognitive-informational, operational-analytical, and reflexive-evaluative) and sixteen indicators. The integration of these approaches enables IAC to be developed holistically, with a focus on outcomes and students' active agency. The proposed model can serve as a methodological basis for diagnostics, instructional design, and assessment in higher education.

Key words: information-analytical competence, systemic approach, competency-based approach, activity-based approach, methodological basis, structural-functional model, critical thinking, information literacy, higher education, indicator, diagnostics, reflection.

Аннотация: В статье раскрываются концептуально-методологические основы развития информационно-аналитической компетентности (ИАК) студентов. Цель исследования – разработать концептуальную модель, объединяющую системный, компетентностный и деятельностный подходы в единое методологическое ядро. В качестве методов использованы теоретический анализ научно-педагогической литературы, сравнение, обобщение, систематизация и моделирование. В результате уточнено содержание понятия ИАК, проведён сравнительный анализ методологических функций трёх подходов и обоснована структурно-функциональная модель, включающая четыре компонента (мотивационно-ценностный, когнитивно-информационный, операционально-аналитический, рефлексивно-оценочный) и шестнадцать индикаторов. Сделан вывод о том, что интеграция названных подходов позволяет развивать ИАК целостно, с ориентацией на результат и опорой на активную субъектную деятельность студента. Модель может быть использована для диагностики, проектирования учебного процесса и оценивания в высшей школе.

Ключевые слова: информационно-аналитическая компетентность, системный подход, компетентностный подход, деятельностный подход, методологическая основа, структурно-функциональная модель, критическое мышление, информационная грамотность, высшее образование, индикатор, диагностика, рефлексия.



KIRISH

Raqamli transformatsiya, ochiq axborot muhirlari va generativ sun'iy intellekt vositalarining jadal rivojlanishi zamonaviy oliy ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi talaba axborot tanqisligidan ko'ra, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi, turli sifat darajasi va ishonchlilik muammosi bilan ko'proq to'qnashadi. Shu bois axborotni izlash va o'zlashtirishning o'zi yetarli bo'lmay, uni tanqidiy baholash, tahlil qilish, sintezlash hamda dalillarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati, ya'ni informatsion-analitik kompetentlik (IAK), mutaxassis tayyorlashning muhim natijalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda axborot ehtiyojini aniqlash, ma'lumotni topish, baholash, tartibga solish va undan mas'uliyatli foydalanish axborot savodxonligining asosiy tarkibiy jihatlari sifatida qayd etiladi ^[12].

O'zbekistonda ta'lim, ilm-fan va raqamli transformatsiyani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan davlat siyosati, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan yangilangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish va mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish, kutubxona fondlaridan elektron foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan ^[13]. Mazkur ustuvor vazifalar talabalarning axborotni izlash, saralash, ishonchliligini baholash, tahlil qilish, tizimlashtirish va undan asoslangan xulosalar chiqarishda foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi. Biroq amaliyotda IAKni rivojlantirish ko'pincha ayrim ko'nikmalarni, masalan, kompyuter savodxonligi yoki axborot manbalarini izlash malakasini shakllantirish bilan cheklanib, kompetentlikning yaxlit va ko'p komponentli tabiati yetarli darajada e'tiborga olinmaydi.

Ilmiy adabiyotlarda IAKning ayrim tarkibiy qismlari – axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash va raqamli kompetentlik yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarni yagona metodologik asos sifatida integratsiyalash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ko'p hollarda ushbu yondashuvlar bir-biridan ajratilgan holda qo'llanadi, natijada IAK modeli tuzilmaviy yaxlitlik, natijaviylik va subyekt faoliyatini bir vaqtning o'zida to'liq qamrab olmaydi.

Tadqiqot maqsadi – tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarni integratsiyalagan holda talabalarda IAKni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslarini nazariy jihatdan asoslash va uning tuzilmaviy-funksional modelini ishlab chiqish.

Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) "informatsion-analitik kompetentlik" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish;
- 2) tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarning metodologik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish;
- 3) uch yondashuv integratsiyasiga asoslangan konseptual model va uning komponent-indikator tuzilmasini asoslash;
- 4) modelning oliy ta'lim amaliyotida qo'llanish yo'nalishlarini belgilash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot muammosining nazariy asoslari uch yo'nalishda o'rganildi.

Birinchidan, metodologik yondashuvlarning fundamental manbalari tahlil qilindi. Tizimli yondashuvning umumnazariy asoslari L.fon Bertalanfining umumiy tizimlar nazariyasi hamda I.V.Blauberg va E.G.Yudinning tizimli tadqiqot metodologiyasiga oid ishlarida ishlab chiqilgan ^[1;2]. Ushbu yondashuv pedagogik obyektni o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan va yaxlit sifatga ega tizim sifatida ko'rishni taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari, ularning tuzilmasi hamda ta'lim natijasi sifatidagi maqomi A.V.Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, V.A. Bolotov, V.V.Serikov va E.F.Zeer kabi olimlar tomonidan asoslangan ^[3-6].

I.A.Zimnyaya kompetensiyalarni shaxsning ichki, potensial psixologik tuzilmalari bilim, tasavvur, harakat dasturlari va qadriyatlar tizimi sifatida talqin qilib, ular faoliyatda namoyon bo'ladigan kompetentlikka aylanishini ta'kidlaydi ^[4].

V.A. Bolotov va V.V.Serikov kompetentlik tayyor bilimni o'zlashtirishning bevosita natijasi emas, balki shaxsning faoliyat va o'z-o'zini rivojlantirish tajribasi bilan bog'liq sifat ekanligini asoslaydi ^[5].

Faoliyatli yondashuv L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasi hamda P.Ya. Galperinning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish konsepsiyasiga tayanadi ^[7-9]. Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxs kompetentligi tayyor bilimlarni uzatish orqali emas, balki maqsadli va mazmunli faoliyat jarayonida, tashqi harakatlarning ichki aqliy harakatlarga aylanishi orqali shakllanadi ^[8; 9].



Ikkinchidan, bevosita informatsion-analitik kompetentlik muammosiga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Adabiyotlarda IAK axborot ehtiyojini aniqlash, axborotni izlash, saralash, qayta ishlash, tahlil qilish, ishonchliligini baholash va natijalar asosida asoslangan qaror qabul qilish bilan bog'liq integrativ qobiliyat sifatida talqin etiladi ^[11; 12]. O'qituvchining raqamli kompetentligi talabalarning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi muhim pedagogik omillardan biri sifatida ko'rsatiladi ^[10]. Shuningdek, tanqidiy fikrlash axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash va asoslangan xulosaga kelish jarayonini ta'minlaydigan IAKning muhim kognitiv mexanizmi sifatida qaraladi ^[12].

Uchinchidan, tadqiqotlar tahlili aksariyat ishlarda mazkur yondashuvlar alohida qo'llanishini, ularni yagona metodologik asos doirasida funksional jihatdan birlashtirishga qaratilgan konseptual ishlanmalar esa yetarli emasligini ko'rsatdi. Mazkur ilmiy bo'shliq tadqiqotning konseptual yo'nalishi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

IAKni rivojlantirishda tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar bir model doirasida funksional taqsimot asosida integratsiyalandi; IAKning to'rt komponenti va ularni ifodalovchi 16 indikator o'zaro bog'liq tizim sifatida asoslandi. Taklif etilgan yechim metodologik yondashuvlarni alohida qo'llashdan farqli ravishda tuzilma, natija va faoliyat mexanizmini yagona konseptual o'zakda birlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ish nazariy tadqiqot xususiyatiga ega bo'lib, unda ilmiy-pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; qiyosiy tahlil (uch yondashuvning metodologik funksiyalarini solishtirish); umumlashtirish va tizimlashtirish (IAK tuzilmasini aniqlash); modellash (konseptual-metodologik va tuzilmaviy-funksional modelni loyihalash) metodlaridan foydalanildi. Modelning ichki izchilligi mantiqiy-tuzilmaviy tahlil asosida ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida IAK quyidagicha ta'riflandi: informatsion-analitik kompetentlik – bu shaxsning axborot ehtiyojini aniqlash, tegishli axborotni izlash va tanlash, uning ishonchliligini tanqidiy baholash, tahlil va sintez qilish, natijalarni asoslangan qaror va mahsulotga aylantirish, shuningdek, o'z axborot faoliyatini refleksiv boshqarish qobiliyati va tayyorligini ifodalovchi integrativ shaxsiy sifat. Ushbu ta'rif kompetentlikning bilim (kognitiv), harakat (operatsional) hamda shaxsiy-qadriyatli (motivatsion-refleksiv) jihatlarini yaxlit holda birlashtiradi. Har bir yondashuv IAKni rivojlantirish jarayonida o'ziga xos va bir-birini to'ldiruvchi metodologik funktsiyani bajaradi. Ularning qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarning IAKni rivojlantirishdagi metodologik funktsiyalari

Yondashuv	Yetakchi vakillari	Metodologik funktsiyasi	IAKni rivojlantirishga hissasi
Tizimli	L.Bertalanfi; I.V.Blauberg, E.G.Yudin	Obyektni yaxlit, o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida ko'rish; "butun-qism" munosabatlarini aniqlash	IAKni ajralmas komponentlar tizimi sifatida modellash; tuzilmaviy yaxlitlik va ichki aloqalarni ta'minlash
Kompetensiyaviy	A.V.Xutorskoy; I.A.Zimnyaya; V.A.Bolotov, V.V.Serikov; E.F. Zeer	Ta'lim natijasini "kompetensiya/kompetentlik" kategoriyalarida belgilash; nazariy bilimdan amaliy qobiliyatga o'tish	IAKni o'lchanadigan natija sifatida ifodalash; indikatorlar va daraja mezonlarini asoslash
Faoliyatli	L.S.Vigotskiy; A.N.Leontyev; P.Ya. Galperin	Kompetentlikni faoliyat jarayonida shakllantirish; talabani faol subyekt sifatida ko'rish	IAKni real analitik topshiriqlar va loyihalar jarayonida rivojlantirish; nazariy bilimni faol amaliyot bilan bog'lash

1-jadvaldan ko'rinadiki, tizimli yondashuv IAK modelining tuzilmaviy yaxlitligini ta'minlaydi, kompetensiyaviy yondashuv uni o'lchanadigan ta'lim natijasi sifatida ifodalaydi, faoliyatli yondashuv esa kompetentlikni real faoliyat jarayonida shakllantirish mexanizmini belgilaydi. Uchala yondashuv bir-birini istisno qilmaydi; aksincha, IAKning tuzilma, natija va jarayon kabi o'zaro bog'liq qirralarini qamrab olib, yaxlit metodologik asosni tashkil etadi.


Uch yondashuv sintezi asosida IAKni rivojlantirishning konseptual-metodologik o'zagi shakllantirildi (1-rasm). Modelning mantiqiy izchilligi quyidagicha:

- yondashuvlar integrativ metodologik o'zakni hosil qiladi;



- ushbu o'zak IAKning to'rt komponentini belgilaydi;
- har bir komponent to'rtta indikator orqali operatsionallashtiriladi;
- refleksiv qayta aloqa esa rivojlantirish jarayonining uzluksiz takomillashuvini ta'minlaydi.

Informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik o'zagi



1-rasm: Talabalarda IAKni rivojlantirishning konseptual-metodologik modeli

Tizimli yondashuv talabiga muvofiq IAK to'rtta o'zaro bog'liq komponentga ajratildi; kompetensiyaviy yondashuv talabiga muvofiq har bir komponent o'lchanadigan indikatorlar bilan ta'minlandi; faoliyatli yondashuv talabiga muvofiq esa indikatorlar aniq analitik harakatlar shaklida ifodalandi. Model 2-jadvalda batafsil keltirilgan.

2-jadval: IAKning tuzilmaviy-funksional modeli: komponentlar, indikatorlar va yetakchi metodologik asos

Komponent	Indikatorlar (4 ta)	Yetakchi metodologik asos
Motivatsion-qadriyatli	1. Axborot bilan ishlashga qiziqish va ichki motivatsiya 2. Akademik halollik va axborot etikasiga sadoqat 3. Informatsion mustaqillik va tashabbuskorlik 4. O'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik	Kompetensiyaviy yondashuv (qadriyat-motiv ustuvorligi)
Kognitiv-informatsion	1. Axborot ehtiyojini aniqlash va aniq ifodalash 2. Axborotni izlash va manbalarni maqsadli tanlash 3. Manbalar ishonchligi va dolzarbligini baholash 4. Axborotni tizimlashtirish va tuzilmalash	Tizimli yondashuv (tuzilma va aloqalar)
Operatsional-analitik	1. Ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish 2. Tanqidiy baholash va faktlarni tekshirish (faktcheking) 3. Dalilga asoslangan xulosa va qaror qabul qilish 4. Raqamli va analitik vositalardan foydalanish	Faoliyatli yondashuv (analitik harakat)
Refleksiv-baholovchi	1. Faoliyatni rejalashtirish va o'z-o'zini nazorat qilish 2. Natija va jarayonni refleksiv baholash 3. Xatolarni aniqlash va tuzatish 4. Axborotni etik va mas'uliyatli taqdim etish	Faoliyatli + kompetensiyaviy yondashuv (refleksiya)



Taklif etilayotgan 4×4 tuzilma (jami 16 indikator) IAKni nazariy jihatdan yaxlit va amaliy jihatdan o'lchanadigan tizim sifatida ifodalaydi. Har bir indikatorni keyingi bosqichlarda 0–4 balli analitik rubrika asosida baholash mumkin; bu talabning rivojlanish darajasini miqdoriy va sifat jihatidan aniqlash imkonini beradi. Bunday operatsionallashtirish diagnostikadan individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalashgacha bo'lgan pedagogik qarorlar uchun metodik asos yaratadi.

Taklif etilgan model IAKni axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash bilan bog'laydigan zamonaviy yondashuvlar ^[11; 12] hamda kompetensiyaviy va faoliyatli metodologiyaning fundamental qoidalari ^[3–9] bilan uyg'unlashadi. Modelning yangiligi shundaki, uch yondashuv ketma-ket emas, balki funksional taqsimot tamoyili asosida integratsiyalangan: tizimli yondashuv tuzilmaviy yaxlitlikni, kompetensiyaviy yondashuv natijaning o'lchanuvchanligini, faoliyatli yondashuv esa kompetentlikning shakllanish mexanizmini ta'minlaydi. Shu tariqa tuzilma, natija va jarayon o'rtasidagi metodologik uzviylik ta'minlanadi. Modelning asosiy cheklovi uning hozircha nazariy asoslash bosqichida ekanligidir; uning validligi, ishonchliligi va diagnostik aniqligi empirik hamda psixometrik tekshiruvni talab qiladi.

Modelning nazariy ahamiyati IAKni uch metodologik yondashuv integratsiyasida izohlash hamda uning komponent-indikator tuzilmasini aniqlashtirish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa 16 indikator asosida diagnostik vositalar, analitik rubrikalar va individual rivojlanish trayektoriyalarini ishlab chiqish uchun metodik asos bo'la olishida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Informatsion-analitik kompetentlik integrativ shaxsiy sifat bo'lib, axborot ehtiyojini aniqlash, axborotni izlash, baholash, tahlil va sintez qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish hamda mazkur faoliyatni refleksiv boshqarish qobiliyatlarini birlashtiradi. Uni alohida ko'nikmalar yig'indisiga qisqartirish metodologik jihatdan yetarli emas.
2. Tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar bir-birini istisno qilmaydi, balki IAKning tuzilma, natija va jarayon jihatlarini qamrab oluvchi yagona metodologik asosni tashkil etadi.
3. Uch yondashuv integratsiyasi asosida to'rt komponent (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-informatsion, operatsional-analitik, refleksiv-baholovchi) va 16 indikatoridan iborat tuzilmaviy-funksional model asoslandi. Model yaxlit va o'lchanadigan tizim sifatida 0–4 balli analitik rubrika orqali operatsionallashtirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. - New York: George Braziller, 1968. - 289 p.
2. Блауберг И.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода. - М.: Наука, 1973. - 270 с.
3. Хуторской А.В. Методологические основания применения компетентностного подхода к проектированию образования // Высшее образование в России. - 2017. - № 12 (218). - С. 85-91.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 34-42.
5. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. - 2003. - № 10. - С. 8-14.
6. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию // Образование и наука. - 2005. - № 3 (33). - С. 27-40.
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология / под ред. В.В. Давыдова. - М.: Педагогика, 1991. - 480 с.
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Политиздат, 1975. - 304 с.
9. Гальперин П.Я. Психология как объективная наука / под ред. А.И. Подольского. - М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО "МОДЭК", 1998. - 480 с.
10. Baydjanov B.X. Teacher's Digital Competences as a Factor in the Development of Students' Information-Analytical Competence // American Journal of Social and Humanitarian Research. - 2025. - Vol. 6, No. 3. - P. 499-506.
11. Fomkina E., Koshova O., Shurduk A. Peculiarities of Formation of Information and Analytical Competence of Students of Higher Education Establishment in the Study of Natural Sciences. - Zenodo, 2020.
12. Tripon C. Information Literacy in Engineering Education // Digital Equity and Literacy. - London: IntechOpen, 2025. - P. 1-24.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.